



## XALQ DEPUTATLARI BESHARIQ TUMANI KENGASHINING QARORI

2024-yil 26-oktabr

VI-114-112-11-153-K/24

Beshariq tumani

### **Beshariq tumani mahalliy budjetining 2024 yil uchinchi chorak davomida shakllangan qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 27 va 165-moddalari va O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari tuman Kengashi

### **QARORQILADI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.08.2019 yil kungi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ4102-sonli Qarorining 3-bandi 4-xat boshisida 2019 yilning 1 fevral kundan sektor ishida faol qatnashgan sektor shtabi a‘zolari har chorak yakunlari bo‘yicha mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan rag‘batlantirilishi ko‘rsatib o‘tilganligi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ilovada ko‘rsatilgan sektor shtabi a‘zolari mahalliy budjetning 2024 yil 3 choak yakunlariga ko‘ra ortirilgan mablag‘lari hisobidan mehnatga xaq to‘lashning eng kam miqdorining 2 barobari miqdorida moddiy rag‘batlantirilsin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (T.Matmusayev), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Z.Olimov):

- ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish va belgilangan tartibda maqsadli yo‘naltirilishini ta‘minlash;

- moliyalashtirish manbasini ochish uchun o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni moliya va g‘aznachilik bo‘limlariga taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Z.Olimov)ga ajratilgan mablag‘lar doirasida moliyalashtirish, tuman G‘aznachilik xizmati bo‘limi (B.Nishonov)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Abdusaidov), ijrosini ta‘minlash

moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman hokimining birinchi o'rinbosari (T.Samatov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



JURAYEV RASULJON  
KARIMOVICH

Xalq deputatlari Beshariq tumani  
Kengashining  
2024-yil 26-oktabrdagi  
VI-114-112-11-153-K/24 -son qaroriga  
1-ilova

### SEKTOR SHTABI A'ZOLARI

<b>№</b>	<b>FISH</b>
<b>1</b>	Alimatov Otabek Sobirovich
<b>2</b>	Borataliyev Mirjalol To`lqinjon o`g`li
<b>3</b>	Xudoyberdiyev Abduaziz Abdujabbor o`g`li
<b>4</b>	Ibragimov Jamshid Adxamovich
<b>5</b>	Xasanov Azizbek Kabirjon o`g`li
<b>6</b>	Xusanova Mavjuda Yo`ldashaliyevna
<b>7</b>	Turanov Shuxratjon Turdaliyevich
<b>8</b>	Nomozov Akbarali Isoqjonovich